

## DARSLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*O‘razaliyeva Odina Maxmud qizi**Yo‘ldosheva Zuxra Olimjon qizi**Xudoyberdiyeva Shahzodabonu Fayzullajon qizi**Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti**Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Hozirgi paytda maktablarda boshlanġich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bundan ularda matematika bōyicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rgatilayotgan bilimlar asosli va puxta bōlishini ta‘minlash, ularni qōllay olish kōnikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Masalalar yechish matematika o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o‘zlashtirishni tasavvur ham etib bōlmaydi. Masalalar yechishning boshlanġich sinflarda o‘rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o‘zlashtirish jarayonida muhim rōlni va o‘quvchilarni fikrlash qobilyatlarni o‘stiradi muhim rōl o‘ynaydi.

**Kalit sōzi:** Matematika ,interfaol metod dars, masalalar, sinflar, o‘yinlar , fikr, kōrgazmalilar.

**Аннотация:** В настоящее время одной из основных задач преподавания математики в начальных классах школы является воспитание у учащихся зрелых во всех отношениях людей. Исходя из этого, важно дать им знания по математике, обеспечить обоснованность и основательность преподаваемых им знаний, развить навыки и умения их использовать. Решение задач является важной составляющей обучения математике. представьте, что вы осваиваете математику, не решая задач. Решение задач играет важную роль в процессе усвоения того или иного теоретического материала, преподаваемого в начальных классах, и развивает мыслительные способности учащихся.

**Ключевые слова:** Математика, интерактивный метод урока, задачи, занятия, игры, идеи, экспонаты.

**Abstract:** Currently, one of the main tasks of teaching mathematics in primary grades in schools is to educate students to become mature people in all respects. From this, it is important to provide them with knowledge of mathematics, to ensure that the knowledge taught to them is reasonable and thorough, to develop skills and abilities to use them. Solving problems is an important component of teaching mathematics. It is impossible to imagine mastering mathematics without solving problems. Problem solving plays an important role in the process of mastering one or another theoretical material taught in elementary grades and develops students' thinking abilities.

**Key words:** Mathematics, interactive method lesson, problems, classes, games, ideas, exhibits.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularni shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Interfaol metodlarga "Aqliy hujum", "Bahs munozara", "BBB", "Bumerang", "Ven diagrammasi", "Gugurt donalari", "Zakovatli zukko", "Zinamazina" va boshqa metodlar orqali darsda o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi. Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. Umumiy holda metodning tanlanishi ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasida faoliyat turlari o'zgarib, o'zaro almashinib turadi. Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o'qitish metodlari ham o'zaro solishtiriladi. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash - bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishni rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi. Ta'lim mazmunining interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o'qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o'quv jarayonini rejalashtirish muolajalari amaliyotida qo'llash bilan bog'liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik. Pedagogikda an'anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlari - ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yoli bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tu'g'diradi. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogikning xususiy imkoniyatlariga toliq mis kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini

ta'minlashdir. Interfaol oqitish metodlaridan foydalanishda pedagogning oqitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan oqitish jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir, darvoqe oqitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha matodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki oquvchi o'rtasidagi bahs hisoblansa "Aqliy hujumda" sinfdagi barcha oquvchilarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

#### **XULOSA:**

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bularidan asosiysi-oquvchilarning muloqot olib borish bo'yicha koinikma va malakalarni rivojlantiradi oquvchilar orasida emotsional aloqalar o'ratilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtog'larining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bolishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qollash oquvchilarning asabiy zoriqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida sinfdan tashqari ishlar oquvchilarning bilimlari va amaliy koinikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishga, oquvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik zuyrakliklarini oshirishga, matematikaga qiziqishini ortirishga va mustaqillikni, uyushqoqlikni, jamiatchilikni tarbiyalashga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyeva Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida oqitish metodlari.- Toshkent: O'qutuvchi, 2017
2. Xidirova O'g'lniz. "Boshlang'ich sinf oquvchilarida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali matematik kompetensiyalarni shakllantirish", "Ta'lim fidoiylari" 2022
3. Abduqodirov A.A va boshq. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Iste'dod jam'armasi, 2008, -45b
4. "Interfaol ta'lim metodlari" Shayakubov Sh.K. Ayupov.R